



UROCHISHELARNING TASNIFLANISHI VA NOMLANISHI HAQIDA

(DEHQONOBOD VA QAMASHI TUMANLARI MISOLIDA)

Ilyos Rahmonov

Romozon Charshamiyev

Feruz Rajabov

“Nuriston” akademik litseyi o‘qituvchilari Annotatsiya. Ushbu maqolada geotizimlarning ko‘lamni, kichik ko‘lamdagi geotizimlar – landshaft, urochishelar haqida va urochishelarning tasniflanishi va nomlanishi xususida manbalarga tayangan holda mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: geotizim, topologik, urochishe, Bovurchi, tasnif, landshaft

Geotizimlarning ko‘lamiga, ya’ni katta-kichikligiga qarab V.B.Sochava sayyoraviy, regional, topologik darajalarini ajratadi. Mazkur sayyoraviy, regional va topologik (mahalliy) ko‘lamdagi geotizimlarning har biri o‘ziga xos hajmi, yoshi bilan tavsiflanib, o‘ziga xos modda va energiya almashinishi shakliga egadir. Ushbu uch ko‘lamdagi geotizimlar yoshi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, sayyoraviy va regional ko‘lamdagi geotizimlarning yoshi geologik davrlar o‘lchami bilan o‘lchansa, topologik ko‘lamdagi geotizimlarning yoshi esa bir necha o‘nlab, yuzlab ming yillar bilan o‘lchanishi mumkin.

Sayyoraviy ko‘lamdagi geotizimlarga geografik qobiq kiradi. U eng katta va eng murakkab geotizim bo‘lishi bilan bir vaqtda juda ko‘p va turli taksonomik qiymatga ega bo‘lgan geotizimlarga tabaqalangandir. Regional darajadagi geotizimlar quyidagilar: materiklar, o‘lkalar, zonalar, provinsiyalar, okruglar, rayonlar. Bu yerda biz faqat quruqlikning geotizimlarga bo‘linishini ko‘rsatdik. Suvlik esa boshqacha bo‘linadi. Topologik (kichik) ko‘lamdagi geotizimlar – landshaft, joy, urochishe, fatsiya.

Geotizimlar (fatsiyadan boshqalari) o‘z ichki tuzilishi jihatidan bir vaqtning o‘zida ham bir butundir, ham xilma-xildir, ya’ni o‘zidan kichik bo‘lgan geotizimlardan tashkil topgan. Bu geotizimlar o‘zining katta-kichikligiga bog‘liq holda pog‘onasimon



taksonomik qiymatga egadir. Masalan, geografik qobiq o‘zidan kichikroq bo‘lgan geotizimlar – quruqlik va okeanlarga, quruqlik esa, o‘z navbatida, materiklarga, materiklar esa o‘zidan kichikroq bo‘lgan geotizimlar – tabiiy geografik o‘lkalardan tashkil topgan va h.k.

1. Tabiiy chegara, tabiiy chegara (jarlik, tog‘ va boshqalar).

2. Atrofdagi landshaftdan ba’zi tabiiy chegaralari yoki xususiyatlari bilan ajralib turadigan hudud (dala orasidagi o‘rmon; botqoq, o‘rmon orasidagi o‘tloq va boshqalar).

Geotizimlarni katta-kichikligi bo‘yicha, ya’ni pog‘onasimon qo‘yib chiqilsa, quyidagicha bo‘ladi: *geografik qobiq–quruqlik–materiklar–tabiiy geografik o‘lkalar–tabiiy geografik zonalar–tabiiy geografik provinsiyalar–tabiiy geografik okruglar–tabiiy geografik rayonlar – landshaftlar – joylar – urochishelar – fatsiyalar*. Lekin geotizimlar, odatda, yuqorida aks ettiranimizdek, birin-ketin emas, balki kichik geotizimlar birgalikda kattalarini, ular esa, o‘z navbatida, undan kattaroqlarini hosil qilib, ya’ni “kattasining ichida kichiklari” joylashgandir¹.

Geografik tadqiqotlarda yuqorida keltirilgan geotizimlardan, asosan, landshaft va uning qismlari bo‘lgan joy, urochishe va fatsiya o‘rganiladi. Ushbu maqolamizda kichik ko‘lamdagagi geotizimlar haqida mulohazalar keltiramiz.

Landshaft nemischa so‘z bo‘lib (land-yer va schaft – o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda *manzara, joyning ko‘rinishi* ma’nolarini anglatadi. Geografiyada esa ilmiy termin bo‘lib, geotizimlarning bir taksonomik pog‘onasini nomlash va tavsiflash uchun ishlataladi. *Landshaft* – bir xil geologik tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kichik geotizimlar yig‘indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizimdir. Landshaft bir jihatdan qaraganda zona, provinsiya, okrug, rayon kabi regional geotizimlarni tashkil qiluvchi eng oddiy geotizim, geografik qobiqning eng oddiy va eng kichik birligidir. Ikkinchi jihatdan, o‘zidan kichik bo‘lgan urochishe,

¹ Sharipov Sh.M., Fedorko V.N., Safarova N.I., Rafiqov V.A. Geografiya (Amaliy geografiya) (10-sinf). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B.37-38

fatsiya kabi qismlar va oddiy geotizimlar bog‘lamidan hosil bo‘lgan murakkab ko‘p yarusli va dinamik geotizimdir. Landshaft yon-atrofdagi landshaftlar bilan modda va energiya almashinishi orqali doim o‘zaro ta’sirda bo‘lib turadigan ochiq geotizimdir. Landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalar tizimidan iborat

Landshaftlarning morfologik qismlari ichida eng asosiyalaridan biri *urochishedir*. *Urochishe* relyefning mezoshaklida joylashgan bo‘lib, kelib chiqishi va rivojlanishi jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan fatsiyalardan iborat geotizimdir. Joylarning alohida urochishelarga bo‘linishida uning litogen asosi – relyef hamda tog‘ jinslarining litologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir. Tekisliklarda urochishe ko‘proq jarliklarga, murakkab tuzilgan qayirga, quyi terrasalarga, yuqori terrasalardagi botiqlarga, deltalardagi qurigan kichikroq ko‘llarning botiqlariga, tog‘larda esa soylarga, adiroldi qirlarga, past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘larning turli qismlari va boshqalarga mos keladi. Landshaftlarning alohida urochkshelariga bo‘linishida uning litogen asosi relyef hamda tog‘ jinslarining litologik tuzilishi asosiy ahamiyatga egadir.

Urochishelar egallagan maydoni va tarqalishiga qarab asosiy (hukmron) va 2-darajali urochishelarga bo‘linadi. Asosiy urochishelar landshaftlarning morfologik strukturasini belgilab, keng ko‘lamda tarqalgan bo‘ladi, 2-darajali urochishelar esa tarqalish ko‘لامи kamligi bilan tavsiflanadi.

Urochishelar o‘zining ichki tuzilishiga qarab oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Oddiy urochishelarda mezorelyefning har bir qismi faqat bitta fatsiya bilan band bo‘ladi. Murakkab urochishelar tarkibida esa mezorelyefning bir qismida *fatsiyalar tizimi* yoki *urochishecha* (podurochishe) joylashgan bo‘ladi. Urochishecha oraliq birlik bo‘lib, asosan, mezorelyefning bir qismida joylashgan fatsiyalar to‘yimli moddalar, namlik va issiqlik taqsimlanishidagi jarayonlarning umumiyligi bilan bir-biriga bog‘liqdir. Masalan, urochishechalar bir urochishening ichida turlicha ekspozitsiyaga ega bo‘lgan hollarda ajratilishi mumkin. Urochishelar ham fatsiyalar yoki landshaftlar kabi yer yuzasida keng tarqalganligi sababli ularni ham ma’lum guruhlarga yoki sinflarga birlashtirish, ya’ni tasnif qilishga to‘g‘ri keladi.

Urochishelarning dastlabki tasnifini Y.N.Seselchuk (1963) bajargan. To‘rt pog‘onalik bu tasnif *tur – kichik tur – xil – kichik xil* ko‘rinishida bo‘lib, eng katta birlik sifatida urochishe turi ajralishi kerakligini ko‘rsatadi. Urochishe turlari mezorelyef shakllarining kelib chiqishi, dinamikasi hamda mexanik va biokimyoviy rivojlanishi yo‘nalishidagi o‘xhashliklar asosida ajratiladi. Keyingi birlik, ya’ni *kichik tur* ham shu asosida, ammo yanada aniqlashtirilgan holda ajratiladi. Urochishelarning keyingi tasnif birligi – *xildir*. *Xillar* asosan urochishelarni tashkil qiluvchi tub fatsiyalarning *tuproq-o‘simplik qoplamicidagi o‘xhashliklarga asosan* aniqlanadi. *Kichik xillar* esa urochishelardagi *tuproq-o‘simplik qoplaming* shakllanishidagi *azonal* (*zonal* bo‘lmagan) *omillardagi o‘xhashliklar* asosida aniqlanadi.

Urochishelar tasnifining mukammalroq ko‘rinishini **A.A.Vidina** (1973) tavsiya etgan. U O‘rta rus balandligining g‘arbiy yonbag‘ridan oqib tushadigan ikki daryo (Vitebeta va Nugra) havzalarida joylashgan 950 ta urochishe va urochishechalarini aniqlab xaritaga tushirgan va tasnif qilgan. U bajargan urochishelar tasnifi 6 ta jadval ko‘rinishida bo‘lib, ularda urochishe va urochishechalar eng avval morfogenetik jihatdan tutgan o‘rniga ko‘ra 5 ta katta guruhga, keyin geomorfologik belgilar asosida 48 ta variantga va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning xususiyatlari asosida yana 50 ta variantga bo‘lib tashlangan. Mazkur tasnif, asosan, urochishe va urochishechalarining muhim xususiyatlarini belgilab beradigan *geologik, geomorfologik, gidrologik va tuproq omillarini* hisobga olgan. **A.G.Isachenko** (1965) fikricha urochishelarni tasnif qilayotgan vaqtida ularning *zonal* va *provinzial xususiyatlari* hisobga olinishi va har bir tur yoki xilga mos bo‘lgan fatsiyalar majmuasiga e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Umuman olganda, urochishelar tasnifi puxta va har tomonlama mukammal ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi landshaftlarning morfologik qismlarini xaritaga tushirish tajribasi ham kam ekanligidadir.

Qashqadaryo viloyatining 2 ta tumanida quyidagi urochishelar borligi aniqlandi:

Termaxotin	Urochishe	Qamashi tumani
Sariangul	Urochishe	Qamashi tumani



Mingchuqur	Urochishe	Qamashi tumani
Maymunlik	Urochishe	Qamashi tumani
Lalmi	Urochishe	Qamashi tumani
Ko'l	Urochishe	Qamashi tumani
Kunko'rmas	Urochishe	Qamashi tumani
Bovurchi	Urochishe	Qamashi tumani
Axtabuloq	Urochishe	Qamashi tumani
To'dagaron	Urochishe	Qamashi tumani
Turka	Urochishe	Qamashi tumani
Jo'ltoy	Urochishe	Qamashi tumani
Qizmurun	Urochishe	Qamashi tumani
Qizilmachit	Urochishe	Qamashi tumani
Qizilbuloq	Urochishe	Qamashi tumani
Qatala	Urochishe	Qamashi tumani
Eshakmaydon	Urochishe	Qamashi tumani
Chochurak	Urochishe	Qamashi tumani
Chorgul	Urochishe	Qamashi tumani
Chilhazor	Urochishe	Qamashi tumani
Chaqmoqo'ydi	Urochishe	Qamashi tumani
Xo'janqoq	Urochishe	Qamashi tumani
Ustanulgin	Urochishe	Qamashi tumani
To'dagaron	Urochishe	Qamashi tumani
Turka	Urochishe	Qamashi tumani
Sangmo'la	Urochishe	Dehqonobod tumani
Salqinchak	Urochishe	Dehqonobod tumani
Mag'masalom	Urochishe	Dehqonobod tumani
Kichikmaydon	Urochishe	Dehqonobod tumani



Keldiyor	Urochishe	Dehqonobod tumani
Kattamaydon	Urochishe	Dehqonobod tumani
Jarko‘chgan	Urochishe	Dehqonobod tumani
Girlov	Urochishe	Dehqonobod tumani
Gazaqishloq	Urochishe	Dehqonobod tumani
Boshchorbog‘	Urochishe	Dehqonobod tumani
Ko‘kgaza	Urochishe	Dehqonobod tumani
Boyyurti	Urochishe	Dehqonobod tumani
Mixama	Urochishe	Dehqonobod tumani
Kindik	Urochishe	Dehqonobod tumani

Ularning nomlanishi va shu nom uchun motivlarni aniqlash toponimika sohasining muhim vazifasidir. O‘zbekiston joy nomlari izohli lug‘atida *Bovurchi* urochishe quyidagicha izohlangan (lug‘atda aynan urochishe deyilmagan). **BOVURCHI** – atrofi tabiiy narsalar bilan o‘ralgan chegara, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani. Bovurchi (“dasturxonchi”) – Chingizzon davrida “ovqat va ichimlik mudiri”, keyinchalik xonning asosiy oshpazi (bakovul) bo‘lgan. Demak, Bovurchi – “oshpaz” ma’nosini ifodalaydi². Bu nom Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida joylashgan urochishedir. Nomning lug‘aviy ma’nosi keltirilgan, ammo nomlashga nima asos bo‘lganligi qayt etilmagan. Nomshunos olim T.Nafasovning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da *bovurchi* unvoni keyinchalik etnonimga aylanganini va qishloq nomi uchun asos bo‘lganligi ta’kidlangan³. Bu izohga e’tibor berilsa, urochishening nomi shu hududga yaqin joylashgan joy nomi bilan bog‘liqdir.

² O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. (mualliflar jamoasi). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. –B.108

³ Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988. –B.36-37.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududidagi urochishelarning geografik joylashishi va tasnifini qilish, ularning nomlanish xususiyatlarini aniqlash, ular bilan bog‘liq tarixiy, madaniy jihatlarni o‘rganish toponimika sohasining muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharipov Sh.M., Fedorko V.N., Safarova N.I., Rafiqov V.A. Geografiya (Amaliy geografiya) (10-sinf). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B.37-38
2. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. (mualliflar jamoasi). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. –B.108
3. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988. –B.36-37.